

ZAMONAVIY HARBIY TA'LIM: PSIXOLOGIK QO'LLAB-QUVVATLASHNING  
YANGI YONDASHUVLARI

**Baxriddinova Sarvinoz Baxriddin qizi**

*Samarqand davlat chet tillari instituti Xalqaro jurnalistika yo'nalishi 4-  
bosqich talabasi va*

**M.O.Pardayev**

*Jizzax viloyati Arnasoy tumani IIB JXX JTSG katta inspektori*

**Annotatsiya:** Bugungi davrda dunyoda urush va tinchlik kabi insoniyat oldida turgan global muammoni hal etish zarur bo'lib turgan bugungi tahlikali zamonda, Vatanimizning tinchligi va osoyishtaligini ta'minlash O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarning, xususan, har bir fuqaroning muqaddas burchi hisoblanadi. Yer yuzida mudofaa faoliyati va harbiy xizmatchilarning axloqiy-psixologik jihatdan tayyorgarligi muhim yo'nalishlardan biridir. Chunki Vatanimizning tinchligi va osoyishtaligi yo'lida beminnat xizmatini qilib kelayotgan harbiy xizmatchilarimiz ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so'zlar:** Harbiy ta'lim, tinchlik, axloqiy-psixologik, psixodiagnostika, virtual, jangovarlik, psixologik sinovlar, jamoaviy psixologik, zamonaviy yondashuv.

**Kirish:** Mamlakatimizda yoshlarga bo'lgan imkoniyatlar hamda bilim-ko'nikmalarni mustahkamlash muhim bir vazifalardan biridir. Ana shunday imkoniyatlardan birti hisoblangan bugungi vaqtda harbiy xizmatchilarimizning psixologik ko'nikmalarini oshirish va yanada shakillantirish maqsadida alohida e'tibor berilmoqda. O'zining psixologik imkoniyatlariga to'g'ri baho bera olmaydigan hamda o'zini yetarli darajada tushunmaydigan inson hayotda ketma-ket xatolarga yo'l qo'yadi. Demak, psixologiya o'zi nima? Psixologiya "Xulq atvor va aqliy jarayonlarini ilmiy o'rganish" deb ta'riflanadi. Ho'sh, nima uchun psixologiya harbiy xizmatchilar va bo'lajak ofitserlar uchun ahamiyatga ega? Chunki psixologiyani o'rganish harbiy xizmatchiga aqliy salohiyatini o'stirish, xotirani kuchaytirish hamda insonlar bilan muloqotga ijoibiy kirish imkoniyatlarini beradi. Harbiy xizmatchilar o'z kasbini egasi bo'lish uchun o'zini qurshab turgan atrof-muhit haqida bilim va tasavvurga ega bo'lishlari shartdir.

XIX asr oxirida va XX asr boshlarida Rossiya harbiy psixologiya samarali shug'ullanib kelgan tadqiqotchilardan biri G.Ye.Shumkov o'sha davrlarda askarlarning holatlariga tayyorgarligi ilmiy psixologik bilimlariga asoslangan qat'iy tizim asosida o'tkazilish shart deb hisoblangan. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandean so'ng harbiy xizmatchilarga bir qancha sharoitlar hamda imkoniyatlar berildi. Xususan, oliy harbiy ta'lim muassasalari tashkil qilindi. Bundan asosiy ko'zlangan maqsad yoshlarimizni bolaligidan harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdir.

Bugungi kunda harbiy xizmatchilarning psixologik holatini barqarorlashtirish, ularning bjangovar tayyorgarligini oshirish va stressga qarshi chidamliligini ta'minlash muhim ro'l o'ynaydi. Bu yondashuv nazariy va amaliyotni quyidagilar o'z ichiga oladi:

1. Psixologik xizmatning vazifalari; harbiy xizmatchilarning ruhiy holatini tahlil qilish, ijtimoiy-psixologik muhitni boshqarish, shaxsiy va jamoaviy psixologik farovonlikni ta'minlasg asosiy maqsad hisoblanadi. Bu maqsadlarni amalga oshirishda psixologiya, pedagogika, sotsalogiya va boshqa ijtimoiy fanlardan foydalaniladi.

2. Psixodiagnostika; harbiy xizmatchilarni psixologik sinovlardan o'tkazish, ularning shaxsiy xususiyatlar, stress va zo'riqishga qarshi turish qobiliyatini baholash muhimdir. Zamonaviy psixodiagnostika texnikalar, testlar va texnologiyalardan foydalanish bugungi kun talabi hisoblanadi.

3. Psixologik maslahat va terapevtik yondashuvlar; harbiy xizmatning o'ziga xos sharoitlariga moslashtirilgan psixologik maslahatlar va terapevtik usullar joriy qilinadi. Bu usullar harbiylarning psixologik salomatligini saqlash va rivojlantirishga xizmat qiladi.

4. Psixologik tayyorgarlik; harbiylar jangovar holatlarda stressga chidamli bo'lish va ruhiy barqarorligini ta'minlash uchun maxsus treninglar o'tkaziladi. Bu tayyorgarliklarda jismoniy, aqliy va ruhiy barqarorlikni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar amalga oshiriladi.

5. Innovatsion texnologiyalar; zamonaviy axbarot texnologiyalari va virtual texnologiyalaridan foydalanish orqali jangovar holatlar, stress sharoitlarni modellashtirish va ularga moslashish usullari ishlab chiqiladi. Misol uchun virtual simulyatorlar yordamida harbiy xizmatchilarning ruhiy bardoshligi sinovdan o'tkaziladi. Mana shunday yondashuvlarda

psixologik xizmatning harbiylar uchun eng yuqori darajada individual yondashuvlar hamda ilg'or texnologiyalar bilan qo'llab-quvvatlash ko'zda tutiladi. Shuningdek, samarali psixologik xizmat jangovar vaziyatlarda ham barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi.

Harbiy psixologiyaning alohida tarmog'i sifatida XX asr boshlarida shakillangan. Tabiiyki, o'tmishdagi Qurolli Kuchlar bilan zamonaviy armiya o'rtasida juda katta farq bor. Sohibqiron Amir Temur o'z davrida shaxsiy tarkib orasida mard, aqlli askarlarini doimi tanlab olib ularga har tomonlama yordam ko'rsatgan va o'stirgan. Bugungi kunga kelib harbiy qism xizmatchilari va bo'lajak ofitserlarga malakali harbiy psixologlar tomonidan harbiy xizmat samaradorligini oshirish bo'yicha bir qancha jangovar, axloqiy-ma'rifiy tayyorgarligiga erishilmoqda. Bugungi kunda Jamoat Xavfsizlik universitetining bakalavriyat bosqichida "xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta'minlash mutaxassisligi" yo'nalishi tashkil qilingan.

Demak, oliy harbiy ta'lim muassasalarda va harbiy qismlarda psixologiya tizimi deyarli shakillangan. Shuni ta'kidlash joizki, yurtimizda markazlashgan psixologik ta'lim muassasalari tarkibida psixologik xizmatlar uchun maxsus bo'limlar hamda markazlar tashkilo qilindi. Harbiy xizmatchilar muntazam ravishda psixologik sinovlar olib borilmoqda. Bo'lajak ofitserlarimiz uchun hamda harbiy xizmatchilarimiz uchun maxsus psixologik tayyorgarlik dasturlari ishlab chiqildi.

### **TAKLIFLAR**

Harbiy ta'lim va harbiy qismlarda psixologiyani rivojlantirish bo'yicha quyidagi takliflar berib o'tmoqchiman:

1. Stress va boshqa ko'nikmalarini oshirish; bunda harbiy xizmatchilarning stressini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun muntazam ravishda treninglar o'tkazilishgi, stressni kamaytirishga yordam beradigan texnikalar, masalan, meditatsiya va nafas olish mashg'qalarini o'rgatish.

2. Psixologik tayyorgarlik dasturlari; jismoniy tayyorgarlik bilan bir qatorda psixologik tayyorgarlik dasturlarini joriy etish kerak. Bunda harbiy xizmatchilarning jangovar vaziyatlarda tezkor qaror qabul qilish qobiliyatini oshiradi.

3. Harbiy xizmatchilar uchun psixologik maslahat markazlari; harbiylarning oilaviy va shaxsiy muammolariga yordam beradigan maslahat xizmatlarini tashkil qilish.

4. Psixologik faravonlikni monitoring qilish; harbiy xizmatchilarning psixologik holatini muntazam ravishda baholab turish hamda anonym so'rovlar va testlardan foydalanish.

5. Motivatsiyani oshirish dasturlari; bunda harbiylar orasida psixologik rag'batlantiruvchi tadbirlar o'tkazish va ularni ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash. Bu takliflar harbiy xizmatchilar salomatligini va ularning xizmatdagi samaradorligini oshirishga yordam beradi.

**XULOSA:** Xulosa o'rinda shuni ta'kidlash joizki, harbiylik kasbi eng sharafli kasblardan biri hisoblanadi. Harbiy kadrlarni tayyorlash borasida moslashuvchanlikni sindirish, psixologik jihatdan bilimlarini yanada oshirishni oldiga maqsad sifatida qo'yiladi. Ularni harbiy vatanparvarlik ruhida shakillantirishda harbiy xizmatchilarimizning o'z kasbiga hamda oilasiga munosabatlarini mustahkamlashga yordam beradi. Negaki milliy armiyamizga yetuk, bilimli hamda har taraflama shakillangan jasur harbiylarimiz tirgakdir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz", //T.; "O'zbekiston", 2017, 179-bet.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma'naviy-ma'rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-3898-sonli Qarori //Xalq so'zi, 2018 yil 6 avgust

3. Harbiy pedagogika Sotiboldiyev. A, Karimjonov A. "Sharq", 2005 yil

4. Harbiy psixologiya Ch. R. Nasriddinov "Fan" nashriyoti 2004 yil.

5. Yoshlar psixologiyasi va pedagogika psixologiya: Ped. in-t. talabalari uchun o'quv qo'llanma/ M.G.Davletshin umumiy tahrir ostida-T.: O'qituvchi, 1974. 194 s.

6. "Harbiy rahbarlik psixologiyasi" P.V.Simonov.

7. "Harbiy psixologiya asoslari" V.D.Nebylitsin.

8. <https://nziyouz.com>

9. <https://cyberleninka.uz>